



BUXORO VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

BUXORO VILOYATNING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

2021- YIL YANVAR-OKTABR
(DASTLABKI MA'LUMOT)




Buxoro viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2021- yil yanvar-oktabr oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 15081,5 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020- yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 98,2 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 94,2 % ni tashkil etdi.




Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da



*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 5,6 % ga hamda suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilishning – 2,4 % ga pasayishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 390,4 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,6 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda

2020- yil

B

1,3 %

2021- yil


B

2,6 %


Yanvar - oktabr

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da



Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-oktabr	2021- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Oltingugutr, t.	1008,0	1186,0	178,0
Shag'al, t.	35711,0	14000,0	-21711,0



Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bog'liq burg'ulash xizmatlari


Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-oktabr	2021- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bog'liq burg'ulash xizmatlari, ming so'm	121974537,0	136089557,0	14115020,0

Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd. so'm

Yanvar - oktabr

FHI,% da



2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 14209,7 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 94,2% ini tashkil etdi.


2020-yil yanvar-oktabr

95,5 %

2021-yil yanvar-oktabr


94,2 %


O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2020- yilning yanvar-oktabr oylarida – 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 1,9 % (1,9 %), o'rta-quyi texnologiyali – 51,0 % (59,4 %) va quyi texnologiyali – 47,0 % (38,6 %)ni tashkil etdi.



Jami sanoat tarkibida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 37,7 % (2020- yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 58,7 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 23,7 % (2020- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 114,5 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 19,0 % (2020- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 113,1 %), boshqa nometall mineral mahsulotlarni ishlab chiqarishning ulushi – 6,7 % (2020- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 138,2 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘shish sur‘ati
O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da






2021- yilning yanvar-oktabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 713,0 ming tonna avtomobil benzini (2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 3,2 % ga o'sgan), 19,3 ming tonna kalava ip (7,5 % ga), 2145,8 ming litr aroq mahsulotlari (85,7 % ga) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-oktabr	2021- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Mazut, ming t.	93,9	67,8	-26,1
O'simlik yog'i (tozalangan), t.	8581,7	8449,6	-132,1
Paxta tolasi, t.	70785,6	71038,0	252,4
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t.	76084,6	71284,2	-4800,4
Paxta chigiti, t.	107422,8	103595,0	-3827,8
Yig'ma konstruksiyalar elementlari, t.	19405,5	25789,6	6384,1

Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida metallurgiya sanoati ulushi 0,3 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi esa 53,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,4 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa, 13,4 % ga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 65,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 5,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 104,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 6,7 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 38,2 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 1011,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Oziq-ovqat, ichimliklar mahsulotlarini ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 16,2 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 114,3% ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 19,0% ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 13,1 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 2871,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlarini ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida asosiy farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 167,3% ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,1 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 115,2 % ni va ishlab chiqarish hajmi 8,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



To'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 19,7% ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 121,0% ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 23,7% ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 14,5% ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 3581,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Yog'och va po'kak buyumlar, pohlol va to'qish uchun materiallar, qog'oz va qog'oz mahsulotlari, mebel ishlab chiqarish


2020- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra mahsulotlarni ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,9 % ni, fizik hajm indeksi esa 101,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,4%, fizik hajm indeksi 137,5 %_ni, ishlab chiqarish hajmi esa 211,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish

2020- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 115,0% ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,4 % ni, fizik hajm indeksi 59,7% ni hamda ishlab chiqarish hajmi 359,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish



2020- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 48,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 115,0 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 37,7 % ni, fizik hajm indeksi 58,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 5685,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish


2020- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish sanoatining chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 0,6% ga pasaygan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,1 % ni, fizik hajm indeksi 235,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 7,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 354,2 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,4 % ini) tashkil etdi. 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 3,7% ga oshganligi kuzatildi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-oktabr	2021- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	5,3	6,0	0,7
Issiqlik energiyasi, ming gkal	564,4	588,0	23,6

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 127,2 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % ini) tashkil etdi.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-oktabr	2021- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	7521,5	14738,5	7217,0
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	419,7	407,6	-12,1

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 96,0 % ga oshganligi kuzatildi. Shuningdek axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 2,9 % ga pasayishi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 6769,0 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 125,6% ni, uning jami sanoatdagi ulushi 44,9 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2020-yil
yanvar-oktabr

38,3%

2021-yil
yanvar-oktabr

37,1%

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2020-yil
yanvar-oktabr

61,7%

2021-yil
yanvar-oktabr



62,9%

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 3,1 % (2020- yil yanvar-oktabr oylarida 2,1 %)ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to'g'ri kelib 19,5% ni va Buxoro shahri 19,4 % ni, G'ijduvon tumani 11,2 % ni hamda Jondor tumani 8,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (125,6 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Kogon (167,9 %), Peshku (159,6 %), Olot (145,8 %), Jondor (144,8 %) hamda Romitan (144,7 %) tumanlarda qayd etildi.

Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to'g'ri kelib, 19,5 % shuningdek, Buxoro shahri 19,4 %, G'ijduvon 11,2 % ni, Jondor 8,7 % tumanlari tashkil etdi.



Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to'g'ri kelib, 30,0 % shuningdek, Buxoro shahri 19,4 %, G'ijduvon 10,8 % ni, Kogon tumani 6,2 % ni tashkil etdi.

2612,7 mlrd. so'm


2019- yil yanvar- oktabr

3155,0 mlrd. so'm


2020- yil yanvar- oktabr

4259,8 mlrd. so'm

2021- yil yanvar- oktabr






Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq- ovqat mahsulotlarining ulushi



o'sish sur'ati
mlrd. so'm

Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Buxoro shahriga to'g'ri kelib, 19,5 % ni, shuningdek, G'ijduvon tumani 12,0 % ni, Jondor tumani esa 15,3 % ni tashkil etdi.



Buxoro viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumani to'g'ri kelib, 39,1 % ni, shuningdek, Buxoro shahriga 13,9 % ni, G'ijduvon tumani esa 7,9 % ni tashkil etdi.

Buxoro viloyati

2019- yil

11 879,5 mlrd. so'm

2020- yil

13845,1 mlrd. so'm

2021- yil

15 081,5 mlrd. so'm



2019- yil


109,4 %

2020- yil

100,2 %

2021- yil

98,2 %



FHI, % da

mlrd. so'm

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Qorovulbozor tumani (315 568,7 ming so'm), Kogon tumani (11 156,1 ming so'm) hamda Kogon shahrida (10 798,5 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (7 703,7 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 3 457,7 ming so'm bo'lgani holda, Qorovulbozor tumanida – 70 557,7 ming so'mni, Kogon tumanida – 5 817,2 ming so'mni, Buxoro shahrida – 4 665,6 ming so'mni tashkil etdi.

Buxoro viloyati

2019- yil

2 157,9 ming so'm

2020- yil

2648,5 ming so'm

2021- yil

3457,7 ming so'm



2019- yil


106,2 %

2020- yil

104,3 %

2021- yil

123,9 %



o'sish sur'ati

ming. so'm

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 4938 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1324 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 26,8 % i) Buxoro shahriga, 627 tasi (12,7 % i) G'ijduvon tumaniga, 382 tasi (7,7 % i) Kogon tumaniga, 374 tasi (7,6 % i) Buxoro tumaniga, 347 tasi (7,0 % i) Jondor tumaniga, 342 tasi (6,9 % i) Romitan tumaniga, 306 tasi (6,2 % i) Shofirkon tumaniga to'g'ri kelmoqda.

